

Ushbu tartib-qoidalar 2025-yil 4-iyundagi 3-sonli institut Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.



"TASDIQLAYMAN"

Buxoro davlat texnika universiteti
rektori

S.Siddiqova

07. 2025-yil

**2025-2026 - O'QUV YILIDA BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETIGA
IKKINCHI MUTAXASSISLIKKA O'QISHGA QABUL QILISH VA IMTIHONLARNI
O'TKAZISH TARTIB-QOIDALARI**

Universitetga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish uchun talabgorlarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi PQ-3183-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentyabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida NIZOM", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM" hamda O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi bayonlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishlari bitiruvchilarini ikkinchi va undan keyingi mutaxassisliklarga o'qishga qabul qilish haqidagi arizalar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining *my.edu.uz* elektron platformasi orqali qabul qilinadi. Talabgorlar tomonidan Nizomda ko'rsatilgan tartibda hujjatlar asl nusxasi universitet qabul komissiyasiga topshiriladi.

Qabul jarayoni "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida"gi NIZOM va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga asosan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Hujjatlarni qabul qilishda va ularning haqqoniyligini aniqlashda qabul komissiyasini mas'uliyatini oshirish hamda ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish bo'yicha talabgorning birinchi ma'lumoti bilan taqqoslangan holda, o'quv rejalari va dasturlaridagi farqlar aniqlanadi (o'qish o'quv rejalariidagi fanlar farqidan qat'iy nazar bakalavriat ta'lim yo'nalishining ikkinchi kursidan boshlanadi).

3. Talabgorning tegishli kursda o'qishi uchun o'quv rejalari va dasturlaridagi aniqlangan farqlarni topshirish tartibi va muddatlari belgilanadi.

4. Ikkinchi va undan keyingi mutaxassislikka qabul barcha uchun to'lov-kontrakt bo'yicha belgilangan qabul qoidalar va tanlov asosida amalga oshirilib, kirish sinovlarida eng yuqori ball to'plagan talabgorlar qabul qilinadi.

5. Talabgorlar ballar reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinadilar. Talabgorlar ikkinchi mutaxassislikka kirish sinovlarini oliy ta'lim muassasasida o'qiydigan tilda topshiradilar.

6. Talabgorlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi PQ-3183-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentyabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida NIZOM", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM"lar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

7. Talabgor ikkinchi mutaxassislikka kirishda tanlagan yo'nalishining xususiyatiga mos kasbiy suhbatdan o'tadi.

8. Ikkinchi mutaxassislikka kirish sinovi umumiy ballari va suhbat mazmuni quyidagilardan iborat bo'ladi va ushbu baholash varog'iga asosan baholanadi:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat texnika universitetiga 2025/2026 o'quv yilida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish uchun talabgorlarni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish uchun suhbat jarayonini o'tkazish va talabalikka qabul qilish bo'yicha UMUMLASHTIRILGAN BAHOLASH VAROG'I

Sana _____

(ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish istagini bildirgan talabgorning F.I.Sh.)

(talabgorning doimiy ish joyi va lavozimi)

(tanlagan ta'lim yo'nalishi)

№	Baholash mezonlari	Ballar (max.100)
1.	Mehnat faoliyatini olib borayotgan soha bo'yicha umumiy ma'lumotga egaligi (faoliyat olib borayotgan sohaning davlat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, ahamiyati va faoliyati hamda zamonaviy texnika va texnologiyalari. Sohaning mavjud muammolari va bartaraf etish yo'llari bo'yicha taklif va mulohazalari) (max.40 ball)	
2.	Kasbiy ishtiyoqi va o'qishga kirish sabablari, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olishdan maqsadi (tanlanayotgan ta'lim yo'nalishining mohiyati va mazmuni, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy faoliyat turlari va kasbiy faoliyat ob'ektlari to'g'risida ma'lumotga egaligi, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish uchun sabab, shuningdek, aynan maskur oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishini tanlashga undagan sabablar) (max.30 ball)	
3.	Umumiy intellektual darajasi, lavozim vazifalari (o'z fikrini aniq-ravshan, mantiqiy va ijodiy bayon qila olish hamda o'z fikrini asoslantira olish qobiliyati, lavozim vazifalarini bilishi, ko'nikma va malakaga ega ekanligi) (max.30 ball)	
JAMI:		

Komissiya raisi _____

Komissiya a'zolari:

Kotib

1. Ikkinchi mutaxassislikka o'qishga kirishda maksimal to'planishi mumkin bo'lgan ball 100,0 ballni tashkil etadi.

2. Ikkinchi mutaxassislikka to'lov-kontrakt asosida qabul qilish chegarasi maksimal ballning 60 %, ya'ni 60,0 ball hisoblanadi.

3. Kirish sinovlari jadvalini universitet rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtirilgan ishchi guruh shakllantiradi.

Universitet qabul komissiyasi mas'ul kotibi



A.X.Gafforov